

Vazirlikning №350 (3.13.2002) sonli
buyrug'i bilan tasdiqlangan

Yosh mutaxassisni ish bilan ta'minlashga
ko'maklashish to'g'risida

Sh A R T N O M A

(davlat granti asosida qabul qilingan talaba, oliy ta'lim muassasi va
potensial ish beruvchi o'rtasida ixtiyoriy asosda tuziladi)

№ _____

«__» _____ 20__ y

(oliy ta'lim muassasaning nomi)

(keyingi o'rinlarda «Oliy ta'lim muassasasi deb nomlanadi) nomidan muassasa Ustaviga asoslanib
ish yurituvchi rektor _____ bir tomondan,

(F.I.Sh.)

_____ nomidagi

(tashkilot nomi)

korxonada Ustaviga asoslanib ish ko'ruvchi _____

(tashkilot rahbari, F.I.Sh.)

ikkinchi tomondan, (keyingi o'rinlarda «Potensial ish beruvchi» deb nomlanadi) va oliy ta'lim
muassasani _____ mutaxassisligi bo'yicha 201__ yilda
bitiruvchi _____ da

(MANZILI)

yashovchi _____ (keyingi o'rinlarda)
«Bitiruvchi» deb nomlanadi) uchinchi tomondan Vazirlar maxkamasining 2002 yil _____ 4
iyundagi 198-sonli qarorining 6-bandiga asosan yosh mutaxassislarni ishga joylashishiga
ko'maklashish maqsadida ushbu shartnomani qo'yidagilar haqida tuzdilar.

I. ShARTNOMANING PREDMETI

1.1. Davlat grantlari hisobidan oliy ta'limga ega bo'lgan yosh mutaxassis (bakalavr,
magistr)larning intellektual salohiyatidan unumli foydalanish va ularni ish bilan ta'minlashga
ko'maklashish.

II. TOMONLARNING HUQUQLARI

2.1. Oliy ta'lim muassasasi:

2.1.1. Noyob ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha ehtiyoj ko'p bo'lgan taqdirda
«Potensial ish beruvchi»larni tender asosida tanlash.

2.1.2. Talaba o'quv amaliyotini o'tashi uchun «Potensial ish beruvchi»ning intellektual va
moddiy-texnikaviy bazasining imkoniyatlarini o'rganish va shu asosda tegishli takliflar kiritish.

2.2. «Potensial ish beruvchi»

2.2.1. «Oliy ta'lim muassasasi» o'quv reja va dasturlari bilan tanishish hamda ularni ishlab
chiqarish talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan o'z takliflarini berish.

2.2.2. «Bitiruvchining»ning Davlat imtixonlarida attestasiya komissiyasi a'zosi sifatida
qatnashish.

2.2.3. Ta'lim muassasasini bitirgandan so'ng ega bo'lgan mutaxassisligi doirasida ish bilan
ta'minlashni talab qilish.

III. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Oliy ta'lim muassasasi:

3.1.1. «Bitiruvchi»ni O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar
tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlari asosida ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar
talablariga javob beradigan malakali mutaxassis etib tayyorlash.

3.1.2. «Potensial ish beruvchi»ga «Bitiruvchi to'g'risida tegishli tavsiyanomlar berish
hamda «Bitiruvchi»ning korxonadagi mehnat faoliyati monitoringini olib borish.

«Bitiruvchi» ishga joylashgandan so'ng 3 yil davomida unga zarur uslubiy yordam ko'rsatish.

3.1.4. Shuningdek, tomonlarning roziligiga asosan qo'yidagi shartlarni bajarish majburiyatini ham oladi

- a) _____
- b) _____
- v) _____

3.2. «Potensial ish beruvchi»:

3.2.1. «Bitiruvchi»ni tegishli tartibda O'zbekiston Respublikasining mashg'ulotlar milliy standarti Tasniflagichi (Klassifikatori)ga muvofiq ish bilan ta'minlash.

3.2.2. «Bitiruvchi»ga mehnat faoliyati davomida uslubiy yordamlar ko'rsatish.

3.2.3. So'yidagi ijtimoiy yordam va imtiyozlar ko'rsatish:

- a) _____
- b) _____

3.3. «Bitiruvchi»

3.3.1. O'z mutaxassisligi bo'yicha malaka tavsifnomasida nazarda tutilgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlari talablari asosida mustaqil faoliyat olib borish uchun mustaqil bilim va malakaga ega bo'lish.

3.3.2. «Potensial ish beruvchi» korxonasiga ta'lim muassasani to'liq bitirgandan so'ng 2 oy muddatda yetib kelish.

3.3.3. «Potensial ish beruvchi» ning korxonasida kamida 3 yil o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlab berish.

IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Tomonlarning biri ushbu shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda boshqa tarafga yetkazilgan zararni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda to'laydi.

V. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA UNI BEKOR QILISH TARTIBI

5.1. Taraflardan birining talabi bilan shartnoma qo'yidagi hollarda qonunda belgilangan tartibda bekor qilinishi mumkin:

5.1.1 «Bitiruvchi»ning malakasi, bilimi ushbu mutaxassis uchun amalda o'rnatilgan Davlat ta'lim standartlari talablariga javob bermasa.

5.1.2. «Potensial ish beruvchi» ish beruvchi tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilmagan taqdirda.

5.1.3. Ushbu shartnoma tomonlarning barchasi imzolanganidan so'ng kuchga kiradi hamda shartnoma to'liq bajarilgunga qadar amalda bo'ladi.

TOMONLARNING REKVIZITLARI

«Oliy ta'lim muassasasi»	«Potensial ish beruvchi»	«Bitiruvchi»
<u>SamDU</u>		
Manzili Universtet hiyoboni 15	_____	_____
Tel: 239-11-40	(nomi)	(F.I.Sh.)
Faks: 239-17-14	Manzili _____	Manzili _____
X/r 23402000300100001010	Tel: _____	Tel: _____
Kod _____	Faks: _____	Pasport seriyasi _____
INN 201213338	X/r _____	(berilgan muddati va joyi)
Imzo _____	Kod _____	Imzo _____
Sana _____	INN _____	Sana _____
	Imzo _____	
	Sana _____	

